

**YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING O‘ZBEKISTON
IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Makroiqtisodiyot kafedrasи o‘qituvchisi PhD
Raximov Xasan Shukurjonovich
Magistr - Usmonov Navruzbek Erkin o‘g‘li*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisaodiyot, yashil iqtisodiy o’sish hamda yashil iqtisodiyotga o‘tishning O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, rivojlanish modeli, ekologik xavf-xatarlar, resurslarning taqchilligi, bioxilma-xillik, “yashil” o‘sishga o‘tish, reyting ko‘rsatkichi, barqarorlik muvozanati, samaradorlik sektorlari.

Annotation: This article talks about green economy, green economic growth and the role of transition to green economy in the development of the economy of Uzbekistan.

Keywords: green economy, development model, environmental risks, resource scarcity, biodiversity, transition to "green" growth, rating indicator, sustainability balance, efficiency sectors.

Аннотация: В данной статье говорится о зеленой экономике, зеленом экономическом росте и роли перехода к зеленой экономике в развитии экономики Узбекистана.

Ключевые слова: зеленая экономика, модель развития, экологические риски, дефицит ресурсов, биоразнообразие, переход к «зеленому» росту, рейтинговый показатель, баланс устойчивости, секторы эффективности.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4477-son Qarori qabul qilindi. “2019 — 2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish” Strategiyasining asosiy maqsadi mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishga, issiqxona gazlarining ajratmalari darajasini pasaytirishga, iqlim va ekologiya barqarorligiga imkon beruvchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat.

Yashil iqtisodiyot iqtisodiyot fanlarining bir yo‘nalish sifatida XX asrning oxirida paydo bo‘ldi. Mazkur iqtisodiyot tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo‘lib, uning bir yo‘nalishi hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy fanlar va falsafaning

ko‘plab boshqa sohalaridagi g‘oyalarni o‘z ichiga oladigan tabiat va jamiyat bilan bog‘liq ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, resurslarga asoslangan iqtisodiyot, aholining rivojlanishi, feminizm iqtisodiyoti kabi yashil siyosat bilan bog‘liq iqtisodiyotni o‘z ichiga oladi.

Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo‘lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib **yashil iqtisodiyot** deganda, inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bog‘liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishi tushuniladi.

Yashil iqtisodiyot - bu insonning Yer resurslariga mas’uliyatli munosabatini o‘z ichiga olgan iqtisodiy rivojlanish modeli. U farovonlikning o’sishi va tabiiy resurslarni saqlash o‘rtasida oqilona murosani topishga qaratilgan. “Yashil” iqtisodiyot deganda ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyot tushuniladi.

Insoniyat kelgusi o‘n yillikda iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning taqchilligi, bioxilma-xillikning yo‘qolib ketishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi kabi juda dolzarb muammolarga duch kelishni boshladi. Ushbu tizimli global inqirozlarning barchasi o‘zaro bog‘liqligi ularni alohida-alohida hal etib bo‘lmasligi, shuningdek, an’anaviy iqtisodiy yondashuv ushbu muammolarning yechimiga qaratilgan ham ekologik, ham ijtimoiy maqsadlarning muvozanatini ta’minlay olmasligi ta’kidlanadi. An’anaviy iqtisodiy yondashuv ortiqcha iste’mol qo’llab-quvvatlanishi, ijtimoiy qamrov sustlashishi hamda tabiiy resurslarning keskin kamayishiga olib kelsa, “yashil” iqtisodiy yondashuv bularni barchasini rad etib, ijtimoiy farovonlikni hamda ekologik barqarorlik muvozanatini ta’minalash uchun xizmat qiladi.

Oxirgi o‘n yillikda deyarli barcha mamlakatlarda tabiiy resurslardan foydalanishning hamda atrof-muhitga salbiy ta’sirini oshirmsandan iqtisodiy farovonlikni ta’minalashga qaratilgan shunday “yashil” iqtisodiyotga urg‘u berish tendensiyasi kuzatilmoqda hamda “yashil” iqtisodiyot konsepsiysi ko‘pgina mamlakatlar uchun strategik ustuvor vazifa sifatida yuzaga chiqmoqda.

“Yashil” iqtisodiyot qayta tiklanuvchi energiya, yashil bino-inshootlar, barqaror transport, suv va yer resurslari hamda qattiq maishiy chiqindi boshqaruvi kabi sektorlardan iboratdir.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan dunyoda va alohida mamlakatlarda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va “yashil” o‘sishga o‘tish holatini baholash imkonini beruvchi turli ko‘rsatkichlar to‘plamlari ishlab chiqilgan bo‘lib, amaliyotda qo’llanib kelinmoqda.

Xususan, bugungi kunda dunyo bo'yicha "yashil" iqtisodiyot samaradorligini baholaydigan Global "yashil" iqtisodiyot indeksi (Global Green Economy Index – GGEI) hamda "Yashil" o'sish indeksi (Green Growth Index – GGI) kabi xalqaro reyting ko'rsatkichlari keng qo'llanilmoqda.

GGEI reyting ko'rsatkichi 2010-yildan boshlab e'lon qilina boshlangan bo'lsa, oxirgi marta 2018-yilda jami 130 ta mamlakatlar bo'yicha baholash natijalari taqdim qilingan.

Mazkur indeksda boshqaruv va iqlim o'zgarishi (leadership & climate change); samaradorlik sektorlari (efficiency sectors); bozor va investitsiyalar (market & investment); atrof-muhit (environment) kabi 4 ta o'lchov kategoriyalari bo'yicha baholanadi.

Keyingi keng qo'llanilib kelinayotgan ko'rsatkich "Yashil" o'sish indeksi (GGI) hisoblanadi. Ushbu indeks barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals), Parij iqlim bitimi majburiyatları, Aichi bioxilma-xillik maqsadlari (Aichi Biodiversity Targets), shuningdek, resurslardan samarali va barqaror foydalanish, tabiat mulklarini himoyalash, "yashil" iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy qamrov kabi "yashil" o'sish yo'nalishlari bo'yicha mamlakatlardagi holatni baholaydi.

"Yashil" o'sish indeksi 4 ta maqsadli yo'nalish, 16 ta kategoriyalar hamda 36 ta indikatorlardan iborat bo'lib, doimiy tarzda hamda barcha davlatlarni qamragan holda yuritib kelinadi.

"Yashil" o'sish indeksiga ko'ra, Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlar eng yuqori "yashil" o'sish ko'rsatkichlariga ega. Eng quyida esa Zimbabve, Jazoir, Nigeriya va Niger kabi Afrika mamlakatlari o'rinn egallagan. MDH davlatlari ichida Gruziya, Markaziy Osiyo mintaqasida Qирг'изистон mazkur reyting bo'yicha yuqori o'rindagi ko'rsatkichlarni qayd etgan.

O'zbekiston Osiyo davlatlari ichida 33-o'rinda qayd etilgan. Mamlakatning mazkur indeksda "Ijtimoiy qamrov" (Social inclusion) hamda "Tabiiy kapital himoyasi" (Natural capital protection) ko'rsatkichlari nisbatan yaxshiroq bo'lsa, "Resurslardan samarali va barqaror foydalanish" (Efficient and sustainable resource use), "Yashil" iqtisodiy imkoniyatlar (Green economic opportunities) yo'nalishdagi ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash imkoniyati mavjud.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4 oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotni ilgari surish va joriy etish bo'yicha vakolatlari organ sifatida esa Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi belgilangan.

Ushbu strategiyada yuqorida ko'rsatilgan "Yashil" o'sish indeksi bo'yicha mamlakatimizning past ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan quyidagi ustuvor yo'nalishlardagi ishlarni amalga oshirish belgilangan:

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;
- energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;
- iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;
- "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.

Mazkur strategiya doirasida "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar natijasi o'laroq, "Yashil" o'sish indeksidagi mamlakatning o'rni sezilarli yaxshilanishi hamda global "yashil" ekotizimni asrab-avaylashda uning munosib hissa qo'shishi ta'minlanadi.

Xulosa:

Bugungi kunda O'zbekiston o'zining hozirgi rivojlanish modeli bo'yicha o'sish chegaralarini yengib o'tish hamda iqlim va ekologiyadan xabardor bo'lib borayotgan jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash yo'lidagi noyob imkoniyatni yaxshi tushunadi. O'zbekistonda barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning rolini kuchaytirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur:

Birinchidan, aholini atrof-muhitning yomonlashuvi sabablari to'g'risida axborot bilan ta'minlashga qaratilgan loyihalarga ustuvor ahamiyat berish lozim.

Ikkinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi sifatini oshirish darkor.

Uchinchidan, "yashil" davlat xaridlari siyosatini olib borish orqali ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va ishlab chiqarishda "yashil" texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'rtinchidan, milliy iqtisodiyotning energiya salohiyatini oshirishda "yashil" texnologiyalardan samarali foydalanish kerak.

Va nihoyat beshinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida "yashil" infratuzilmaga sarflanadigan davlat investitsiyalari hajmini oshirish lozim.

Mamlakat tarkibiy islohotlarning jadallahuviga tayangan holda, o'z iqtisodiyoti, odamlar va sayyoramiz uchun, rivojlanayotgan sohalarda yangi ish o'rinalarini yaratish bilan birga tabiiy resurslardan Moslashuvchan,

Inklyuziv, Barqaror va Samarador (MIBS) foydalanishga asoslangan past uglerodli va iqlimga chidamli "yashil" o'sish modeli sari yo'lni belgilash bo'yicha qadamlar tashlamoqda. Lekin, yanada barqaror va "yashil" iqtisodiyotga aylanish

uchun mamlakat mavjud ekologik muammolar va iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradigan boshqa xavf omillari ustida ishlashi kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali biz kelajak avlodlar uchun yanada taraqqiy etgan barqaror rivojlanish asosidagi iqtisodiyotni ta'minlashga erishamiz desak shubha qilmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 4-oktabrdagi pq-4477-son qarori.
2. "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami. Jahon banki: Washington D.C."
3. Порфириев Б.П., "Зеленая" экономика: реалии, перспективы и пределы роста. - М. Карнеги, 2013.
4. "The World Bank and the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. 2022. Towards a Greener Economy in Uzbekistan. ©World Bank."
5. www.unep.org - Birlashgan Millatlar Atrof-muhit dasturining rasmiy sayti.
6. www.worldbank.org - Jahon bankining rasmiy ma'lumotlari.
7. <http://worldgreenconomy.org>
8. <http://stat.uz>.
9. <http://uza.uz>
10. <https://mineconomy.uz>
11. <https://cityeconomy.uz/uz/news/iqtsod-yangiliklari/yashil-iqtisodiyotga-otish-strategiyasi-maqsad-va-vazifalar>.
12. <https://yuz.uz/uz/news/yashil-iqtisodiyotni-rivojlantirish-chora-tadbirlari>.